

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.K.Raximova

Badiiy matn talqini va badiiy matn tahlilining tarixiy taraqqiyoti 4

M.Sh.Abdurahimova

Sukut psixofiziologiyasi 12

TILSHUNOSLIK**M.Y.Mamajonov, D.J.Omoniddinova**

Morfo-pragmatik va pragmasintaktik talqin 15

D.I.Mirzayeva, N.U.Nigmatova

O'zbek va ingliz tilshunosligida antroponimlarning masalasi 26

N.Abduraxmonova, A.Iskandarova

Parallel korpusda lingvomadaniy birliklarni lingvistik teglash masalasi 29

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning o'ziga xos xususiyatlari 33

Z.B.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi ayrim otlarda arabiylar ko'plikning ifodalanishi 37

D.R.Ismoilova

The linguopoetics of John Steinbeck's works 42

I.A.Soatov

"Ta'lif-tarbiya" tushunchasining etimologiyasi va lingvistik ifodasi 46

Д.И.Мирзаева, З.А.Абдуллаева

Анализ речевой агрессии через дискурсивный, прагматический и корпусный подходы 52

Ш.У.Жалолов

Лексико-семантические особенности овощных и бахчевых культур 56

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek tillarida nutqiy etiketning lingvopragmatik tahlili 61

U.M.Askarova

Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushishi (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 65

I.Sh.Kurbanova

Temir yo'l terminologiyasini o'rganish usullari va tadqiqot metodologiyasi 70

R.A.Xamrakulova

Margaret Tetcher va Tereza Mey nutqlarining lingvistik tahlili 74

Sh.S.Shadiyeva

Lingvistik nazariyani til o'qitishga integratsiyalash hamda pedagogik amaliyotga filologik yondashish 78

Д.О.Турдалиев

Праздник Масленицы как отражение язычества и христианских традиций в славянской культуре 84

L.T.Toshxonov

Inkorning psixologik kategoriya sifatida milliy romançilik na'munalarida ifodalanishi 88

Ш.Н.Г.Мамедова

Новый стиль изображения в фольклорных произведениях Гашама Исабаили 92

A.M.Temirova

Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida qo'llanilgan oksimoronlarning struktur-semantic tahlili 98

F.H.Jamilli

The sociolinguistic nature of the representation of female dominance 102



UO'K: 82-2:82.09

BOSH VA IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARNING UYUSHISHI
(Ozod Sharafiddinov asarlari misolida)

ОБЪЕДИНЕНИЕ ГЛАВНЫХ И ВТОРОСТЕПЕННЫХ ЧАСТЕЙ
(На примере произведений Азада шарафиддина)

COMBINATION OF PRIMARY AND SECONDARY PARTS
(In the example of the works of Azod Sharafiddinov)

Askarova Umidaxon Maxamadjon qizi 
 O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ozod Sharafiddinov fikrat ibrati, jasorat ibrati, ta'b ibrati, zakovat ibrati singari bir qancha ibratlarni o'zida mujassamlashtirgan allomalarimizdan edi. O.Sharafiddinov umri davomida yuzlab maqolalar, taqrizlar, sharhlar yozdi. O'zbek adabiyotining o'sishida iste'dodli shoir yozuvchilarining kashf qilinishida, ijodkorlar mahoratining o'sib borishida, to'laqonli xarakterining vujudga kelishida, tanqidiy asarlarining hissasi ulkan. Olim o'z maqola, taqrizlarini umumlashtirish - yirik ilmiy nazariy tadqiqotlar va mukammal adabiy portretlar yaratish yo'llini tanladi, hamda yetuk ijodkorlar portretini yaratishda uning maqola-portretlari o'ziga xos o'r'in egallaydi. Munaqqid yaratgan portretlar o'zining takrorlanmas jozibador, shirali tili bilan ajralib turadi. Ayniqsa, uning yozgan asarlaridagi uyushiq bo'laklar, ya'ni uyushiq ega va kesimlar hamda ikkinchi darajali bo'laklarning alohida o'rni bor. Shu sababli ham biz ushbu maqolamizda uyushiq ega va kesimlar hamda ikkinchi darajali bo'laklarning uyushiq holda O.Sharafiddinov asarlarida uchrashini tahlil qilishga urinamiz.

Аннотация

Азод Шарафиддинов был одним из наших ученых, воплотившим в себе ряд примеров, таких как пример мудрости, пример мужества, пример амбиций и пример изобретательности. О.Шарафиддинов за свою жизнь написал сотни статей, рецензий и комментариев. В развитии узбекской литературы огромен вклад критических произведений в раскрытие талантливых поэтов и писателей, в развитие мастерства творцов, в возникновение полноценного персонажа. Ученый избрал путь обобщения своих статей и рецензий - создание масштабных научно-теоретических исследований и совершенных литературных портретов, а его статьи-портреты занимают уникальное место в создании портретов зрелых художников. Портреты, созданные критиком, отличаются неповторимо привлекательным, сочным языком. В частности, в его сочинениях особое место отводится союзным предложениям, то есть союзным притяжательным падежам и причастиям, а также второстепенным предложениям. По этой причине в данной статье мы попытаемся с помощью примеров проанализировать сочетание притяжательных падежей и причастий и придаточных второго порядка в произведениях О.Шарафиддина.

Abstract

Azod Sharafiddinov was one of our scholars who embodied a number of examples, such as the example of wisdom, the example of courage, the example of ambition, and the example of ingenuity. O.Sharafiddinov wrote hundreds of articles, reviews and comments during his lifetime. In the growth of Uzbek literature, the contribution of critical works to the discovery of talented poets and writers, to the development of the skills of creators, to the emergence of a full-fledged character is huge. The scientist chose the way of summarizing his articles and reviews - creating large-scale scientific theoretical studies and perfect literary portraits, and his article-portraits occupy a unique place in the creation of portraits of mature artists. The portraits created by the critic are distinguished by their uniquely attractive, juicy language. In particular, in his writings, there is a special place for conjunctive clauses, that is, conjunctive possessives and participles, as well as secondary clauses. For this reason, in this article, we will try to analyze with the help of examples the meeting of combined possessives and participles and secondary parts in the works of O. Sharafiddinov.

Kalit so'zlar: uyushiq bo'laklar, bog'lovchilar, uyushiq to'ldiruvchi, uyushiq hol, sintaktik, uyushiq birikma, gap bo'laklari.

Ключевые слова: спрягаемые части, соединительные слова, спрягаемое дополнение, спрягаемый падеж, синтаксический, спрягаемое соединение, придаточные предложения.

Key words: conjugated parts, connectives, conjugated complement, conjugated case, syntactic, conjugated compound, clauses.

KIRISH

Zamonaviy badiiy tafakkurimiz rivojida o'chmas iz qoldirgan, hamisha barhayot siymo sifatida tan olingen Ozod Sharafiddinov nomi doimo yuksak ehtirom bilan tilga olinadi. Olim tanqidchilik muammolariga ham ko'p to'xtalib o'tgan. Tanqid – bu adabiyotdagi go'zallikni kashf etish, adabiyotning badiyligini aniqlash, insonga ta'sir qiladigan estetik omillarini belgilovchi san'at. Har bir adabiy turning yetakchi janri bo'lganiday, adabiy-badiiy tanqidning ham mashhur qadimiy janri bor. Bu adabiy-tanqidiy portret bo'lib, uyuştiruvchi, qoliplovchi xususiyatga ega. Ozod Sharafiddinov o'z asarlarida tilimizda mavjud barcha imkoniyatlardan, xususan, gap bo'laklarining uyushib kelishidan ham maqsadli va unumli foydalangan. Va ular orqali ifodalamoqchi bo'lgan fikri, aytadigan gapi yana ham aniqroq, tushunarliroq bo'lishiga erishganligini ko'rishimiz mumkin.

ASOSIY QISM

Gapda ikki yoki undan ortiq ega bitta va undan ortiq kesim yo aniqlovchi bilan bir xil sintaktik aloqada bo'lsa, grammatik tomondan tenglik hosil qilsa, bunday egalar uyushgan egalar hisoblanishi barchamizga birdek ma'lumdir.

Misol uchun va bog'lovchisining juft ifodalar o'tasida qo'llanilishi, asosan, uyushiq egalarda hamda uyushiq ikkinchi darajali bo'laklarda uchraydi. Misol uchun: *U Navoiy va Furqat, Mashrab va Muqimiyl, Avaz O'tar va Nodira kabi klassiklarning, Nizomiy va Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov va Sobir Tohirzoda kabi ozarbayjon adabiyoti buyuk siymolarining, Abdulla To'qay, Hodi Toqtash va Olimjon Ibrohimov kabi tatar yozuvchilarining, Shayx Sa'diy va Hofiz, Abdurahmon Jomiy va Bedil kabi fors-tojik adabiyoti klassiklarning asarlarini besh qo'lday mukammal bilgan.* [Birinchi mo'jiza: 207]

Aniqlovchi uyushiq egalarning hamma komponentlariga barobar ergashishi yoki ularning ma'lum komponentlariga ergashib, boshqa komponentlariga ergashmasligi ham mumkin. Kesim esa uyushiq egalarning barcha komponentlariga birdek ergashadi.

Uyushiq egalar tuzilishi jihatdan so'z yoki so'zlar birikmasidan iborat bo'lishi mumkin: "Shundan keyin, o'sha paytda respublikamizda chiqadigan gazeta va jurnallarning ko'pchiligidagi G'afur G'ulomning she'rlari, feletonlari, satirk hikoyalari, xabar va maqolalari tez-tez bosila boshladi" [Birinchi mo'jiza: 205]

Uyushgan egalar bir-biriga bog'lovchisiz, ya'ni biriktiruvchi pauza va sanash intonatsiyasi orqali ham birikadi: *Bunday asarlar A. Muxtor, Shuhrat, Shukrullo, Jumaniyoz Jabborovich kabi shoirlarning, Erkin Vohidov, Teshay Saydaliyev, Oxunjon Hakimov kabi yoshlarning ijodida ko'p uchraydi.* [Birinchi mo'jiza: 177]

Uyushiq egalar tarkibidagi bo'laklar ko'pincha bir xil so'z turkumlari bilan ifodalanganadi.

Otdan ifodalangan uyushiq egalar egalik va ko'plik qo'shimchalarini qabul qilganda bu qo'shimchalar har bir uyushiq ega komponentiga yoki uyushiq egalarning oxirisiga qo'shilish keladi. Ushbu bo'laklar hammasi bir to'plam kabi o'qilsa, shuningdek, sanalishning tugalligini bildirsa, u qo'shimchalar eng oxirgi bo'lakkagina qo'shiladi va hammasi uchun umumiyl bo'ladi: *Bu bir xillilik, ayniqsa, muhabbat haqidagi she'rlarda ko'p uchramoqda. Shuhratda ham, Shukruloda ham, Dushan Fayziyda ham, Mamadali Umarov, Z.Obidovda ham bir xil pryomning juda ko'p qo'llanganini ko'ramiz.* [Birinchi mo'jiza: 197] Ushbu keltirilgan misolda har ikkisini ya'ni egalik va ko'plik qo'shimchasi otdan yasalgan uyushiq egalar Shuhratda, Shukruloda, Dushan Fayziyda kabilarga qo'shilgan bo'lsa, Mamadali Umarov, Z.Obidovda ikkisi bir to'plam kabi o'qilgani hamda sanalishning tugaluvini bildirgani uchun qo'shimchalar eng oxirgi bo'lakkagina qo'shilganligini ko'rishimiz mumkin.

Grammatik tomondan uyushiq kesimlar o'zaro teng bo'lib, bir egaga yoki uyushgan egaga tobelanadi va ikkinchi darajali bo'laklarni ham ergashtiradi. Bugungi tilimizdagagi uyushiq kesimlar ifodalinish materiallariga ko'ra ikki turga ajratiladi:

- 1) fe'l-uyushiq kesimlar;
- 2) ot-uyushiq kesimlarga bo'linadi.

Fe'l-uyushiq kesimlarning fe'l bilan ifodalananidan shakli boshqa so'zlar bilan ifodalanganida nisbatan ancha ko'p uchraydi, sababi fe'lning asosiy sintaktik funksiyasi kesim bo'lib kelishidadir.

Fe'l bilan ifodalangan uyushiq kesimlar shaxs-son va zamon nuqtayi nazardan, asosan bir xil bo'ladi: *Abdulla Qahhor insonlik sha'niga dog' bo'ladigan har qanday illatni benihoya yomon ko'radi, axloqsizlik, vijdonsizlik, ikki yuzlamachilikdan nafratlanadi, xalq taniga zulukday yopishib*

TILSHUNOSLIK

olgan haromxo'rlardan, tekintomoqlardan jirkanadi va ana shu otashin nafrat va g'azab uni ijod qilishga, satirik asarlar yaratishga undaydi.[Birinchi mo'jiza: 283] Shoir ijod qilar ekan, birinchi navbatda, bugungi kunning bosh masalasini – odamlarni harakatga keltirayotgan, ularga kuch berayotgan, she'rga qanot bag'ishlayotgan masalani aniqlab oladi.[Birinchi mo'jiza: 340] Shoir bugungi hayotning har nafasini ardoqlaydi, har bir fakt zaminida yotgan go'zallikni ko'ra bilishga chaqiradi, yurakni "go'zallik xodimiga" aylantirishga, shoirni "go'zallik yalovchisi" bo'lishga undaydi.[Birinchi mo'jiza: 341]

Bir gapda uyushiq kesimlar ham bo'lishli, ham bo'lishsiz fe'llar bilan ifodalanishi mumkin. Bunda ularning hamma komponentlari bo'lishli, yoki hamma komponentlari bo'lishsiz shaklda, shuningdek aralash holda ham ifodalanadi: *Mashqda ishlataladigan miltiqlarning stvoli teshib qo'yiladi, ular ko'rinishiga miltig'u, lekin otishga yaramaydi, qurollik qilmaydi.*[Birinchi mo'jiza:180]

Bundan tashqari, ot-uyushiq kesimlarda bog'lama rolida, asosan bo'l fe'lining turli shakllari, edi, ekan, emish kabi to'liqsiz fe'llari, sanaladi, hisoblanadi kabi fe'llar qo'llanadi: *Insoniyat mavjud ekan, u tarix g'ildiragini aylantirar ekan, bu borada faqat aqli bilan emas, hislari bilan ham ish yuritar ekan, san'at va adabiyot ham yashayveradi.*[Birinchi mo'jiza:13]

Biriktiruvchi bog'lovchilar yordami bilan o'zaro birikkan uyushiq kesimlar ketma-ket, oldinma-ketin davom etgan harakatni ifodalandi: *Shoir xalqning shu xislatini cho'chimay she'rga ko'chiradi, uning o'tkir iboralaridan, hazillaridan foydalanadi, natijada she'nda shoir aytmoqchi bo'lgan fikr yarqirab ochilib ketadi, kitobxonga tezroq yetib boradi va uning qalbida bir umr o'rnashib qoladi.*[Birinchi mo'jiza: 224]

Zidlovchi bog'lovchilar yordami bilan birikkan uyushiq kesimlardan anglashilgan harakatning biri bajariladi xolos, boshqasi esa bajarilmaydi. Shu sabab ham uyushiq kesim komponentlaridan biri bo'lishli, ikkinchisi esa bo'lishsiz fe'l bilan ifodalanadi: *Biz biror yozuvchining ikkinchi yozuvchiga, biror adabiyotning ikkinchi adabiyotga ta'sirini ko'rsatadigan juda ko'p faktlarni bayon qilamiz-u, ammo ularni ilmiy jihatdan chuqur idrok etishga, umumlashtirishga, ular asosida baquvvat nazariy xulosalar chiqarishga oshiqmaymiz.*[Birinchi mo'jiza: 66]

Uyushiq ega va kesimlardan mohirona foydalangan olim Ozod Sharafiddinov o'z asarlarida uyushiq ikkinchi darajali bo'laklardan ham unumli foydalangan.

Uyushgan aniqlovchilar. Ayrim hollarda har bir otga birdaniga bog'lanib kelgan birdan ortiq aniqlovchi uyushgan bo'ladi, ushbu holatda ular o'zları tomonidan aniqlanayotgan otga nisbatan bir xil munosabatda bo'lib, sanash ohangi va teng bog'lovchilar orqali yo faqat sanash intonatsiyasi hamda biriktiruvchi pauzalar bilan bog'lanadi: *Uning qahramonlari ichida jozibasi, ma'naviy kuchi, aqli bilan qalbimizni maftun etadigan go'zal odamlar ham, nodonligi, kaltafahmligi, egriligi bilan nafratimizni qo'zg'aydigan badbashara, xunuk odamlar ham bor.*[Birinchi mo'jiza: 268]

"Publitsist sintaktik qurilmalarida aniqlovchi qurilmalarning anchayin ixcham va zalvorliligi ko'zga tashlanadi"[O.Sharafiddinov publitsistikasi tili va uslubi: 31]

Uyushiq to'ldiruvchilar. Uyushiq to'ldiruvchilar grammatik shakli va vazifasi jihatdan to'ldiruvchi bo'lib, ma'lum vositalar yordamida o'zaro teng aloqaga kirishgan hamda gapning biror bo'lagiga bog'lanib, asosan bir turdag'i so'roqqa javob bo'lgan bir tipdag'i bo'laklardir. Masalan: *Shoir katta satirik mahorat bilan burjua millatchilarining xalqqa qarshi mohiyatini, kontrrevolyutsion faoliyatini tanqid qiladi va ularga qarama-qarshi o'laroq, xalqchillik prinsiplarini tasdiqlaydi.*[Birinchi mo'jiza: 101]

Uyushiq to'ldiruvchilar teng bog'lovchilar yoki intonatsiya orqali o'zaro bog'lanib, uyushgan bo'laklarning ochiq yoki yopiq guruhini hosil qiladi.

Uyushiq to'ldiruvchilarning ochiq guruhini biriktiruvchi pauzalar va sanash intonatsiyasi yordami bilan o'zaro bog'langan gap bo'laklari tashkil qiladi.

Bundan tashqari, uyushiq to'ldiruvchilar orasida odatda bir-biriga zid munosabat bo'lmaydi va ularning o'zaro birikishida zidlovchi bog'lovchilar yoki shu vazifani bajaruvchi -u, -yu yuklamalari ishlatalmaydi.

Uyushiq to'ldiruvchilarning ta'kidli shakli har bir uyushgan bo'lakdan so'ng *ham* bog'lovchisining takrorlanishi yo'li bilan ifodalanadi. Ushbu holatda uyushiq to'ldiruvchilarning har biri kelishik qo'shimchasini qabul qiladi va shu sababli ham ta'kid ma'nosi yanada kuchliroq bo'ladi: *Nega ayrim tanqidchilarning asarlarida ham, adabiyot o'qituvchilarning faoliyatida ham, qolaversa, o'quvchilar va kitobxonlarning adabiyotga munosabatida ham vulgar utilitarizm ko'rinishlari*

bor? [Birinchi mo'jiza: 17] Ayni choqda obi nonning ham, gjidaning ham, teshikkulchaning ham qanday ekani, qaysisining yuzida sedana borligi, qaysisi singib pishgani, qaysisi kuyibroq ketgani yoki xomsiz bo'lib qolgani bilinib turadi, ya'ni predmetlarning individual xususiyatlari konkret ochiladi. [Birinchi mo'jiza: 19]

Uyushiq hollar. Uyushgan hollar bir xil ma'no munosabatni ifodalovchi ya'ni o'rIN, payt yoki holat kabi bir necha hollar gapning bitta yoki ba'zan bir necha bo'lagiga bog'lanadi hamda o'zaro teng aloqaga kirishadi.

Uyushiq hollar ham, boshqa uyushgan ikkinchi darajali bo'laklar kabi teng bog'lovchilar orqali yoki bog'lovchisiz-faqat sanash intonatsiyasi va biriktiruvchi pauzalar vositasi bilan o'zaro bog'lanishlari mumkin. Bular uyushiq hollarning teng bog'lanish belgilari hisoblanadi.

Teng bog'lovchilar uyushiq hollar orasida yakka holda (va, *hamda*, *bilan*, *lekin*, *ammo* kabi) va takror holda (*goh* .. *goh*, *dam*... *dam* kabi), shuningdek, goh yakka, goh takror holda (*yo*, *yoki*, *ham*) qo'llanishlari mumkin.

Yakka holda qo'llanuvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan uyushiq hollar orasidagi pauza juda qisqa bo'ladi. Misol uchun, yakka holda qo'llanuvchi va bog'lovchisi ikki yoki undan ortiq komponentli uyushiq hollarni bog'laydi: *Ba'zi bir ovro'palik kaltafahm va befarosat odamlar o'zbeklarni "osiyolik" deb tahqirlagan, ularni yarim yovvoyi tarzda hayot kechiradigan madaniyatsiz nodonlar deb chuvvos solgan, "mayda millat" deb pastga urg'an bir sharoitda Cho'pon bu xalqning mislsiz madaniyati, juda boy ruhiyati, bukilmas e'tiqodi va pok imoni, mazmundor tarixi uchun iftixon qildi va bu iftixorni ko'pgina asarlarida, shu jumladan, tanqidiy maqolalarida baralla aytishdan cho'chimadi.* [Ijodni anglash baxti: 82]

Bog'lovchi funksiyasida kelgan *bilan* ko'makchisi faqat ot bilan ifodalangan ikki komponentli uyushiq hollar orasida keladi: *Kezi kelganda aytib qo'yay, shu sovxoza tug'ilganim uchunmi yo boshqa sababmi, harqalay, O'tkir Hoshimov bilan meni ular faxriy a'zo qilib olishgan.* [Ijodni anglash baxti: 209]

Lekin, ammo, biroq kabi bog'lovchilar ham faqat ikki komponentli uyushiq bo'laklar orasida kelib, uyushiq ravish hollarinigina bog'lash funksiyasini bajaradi: Cho'ponni qoralagan "madaniyat xodimlari" ehtimol, o'sha kezlarda partiya manfaatiga, xalq manfaatiga xizmat qilyapmiz deb o'ylagandir, lekin aslida ular mafkura jabhasida, adabiyot va san'at sohasida Stalin istibdodining qaror topishiga xizmat qilishgan edi. [Ijodni anglash baxti: 34] Ma'lumki, jadidlar XX asr boshlarida ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan yangi mazmundagi adabiyot yaratdilar, *ammo turli sabablarga ko'ra bu adabiyot hamma vaqt ham yuksak badiiyat bilan omuxta bo'lavermas edi.* [Ijodni anglash baxti: 69]

Takror holda qo'llanuvchi bog'lovchilar (*goh-goh, dam-dam kabi*) har bir uyushiq holdan oldin, faqat takrorlanibgina qo'llanadi. Bu bog'lovchilar yordamida bog'langan uyushiq bo'laklar orasidagi pauza esa uzun va ta'kidli bo'ladi: *Bu fikr har xil maqomda — goh yumshoq ta'na shaklida, goh do'stona maslahat tarzida, goh keskin talab ohangida, goh taassuf yo'sinida ko'p aytilgan.* [Ijodni anglash baxti: 277]

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinish turibdiki, adib uyushgan aniqlovchi, uyushiq to'ldiruvchi va uyushiq hollar kabi uyushiq birikmalarning barchasidan unumli foydalangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Til lisoniy imkoniyatining ma'lum bir adib ijodida voqelanish xususiyati tadqiqotchilar tomonidan har xil aspektda turli metodologik va metodik asosda o'rganib kelinmoqda. Buni o'zbek tilshunosligida badiiy asar tilining lisoniy xususiyatini o'rganish, til birligining lingvouslubiy hamda lingvobadiiy tadqiqi sifatida ajratish mumkin. Biroq o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan munaqqid yoki atoqli shaxs ijodi, xusan, publisistik tili esa adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ma'lum darajada o'rganilgan bo'lib, hali yetarli darajada lingvistik tadqiq manbai bo'lgan. [O.Sharafiddinov publisistikasi tili va uslubi: 4-5]

Ammo olimning publisistikasi tili H.Hamrayeva tomonidan monografik planda tadqiq etilgan. H.Hamrayeva "Ozod Sharafiddinov publisistikasi tili va uslubi" nomli filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun qilingan tadqiqot ishida garchi olimning asarlariga publisistik tomonidan yondashgan bo'lsa-da, bazi o'rinnarda sintaktik tomonidan ham chuqur tahlil qilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Atoqli jamoat arbobi, mohir so'z san'atkori Ozod Sharafiddinovning "Birinchi mo'jiza" va "Ijodni anglash baxti" asarlarini uyushiq bo'laklarni tahlil qilar ekanmiz, u uyushiq bo'laklardan

TILSHUNOSLIK

samarali foydalanib, yozilgan fikrini aniq, to'liq, obrazli, gapni ixcham tuzish, unda his-hayajon va emotsiyal holatlarni ham ancha to'la aks ettirish, stilistik ravonlik va ixchamlik singari xususiyatlari bilan tushunarli, oddiy, haqqoniy, ayniqsa, ta'sirli ifodalashga erishilganligini kuzatamiz.

Tahlil jarayonida Ozod Sharafiddinov o'z maqolalarida tilimizda mavjud barcha imkoniyatlardan, xususan, gap bo'laklarining uyushib kelishidan ham maqsadli va unumli foydalangan. Va ular orqali ifodalamoqchi bo'lgan fikri, aytadigan gapi yana ham aniqroq, tushunarliroq bo'lishiga erishgan degan fikrga keldik.

XULOSA

Olimning asarlarida qisqa jumla, sodda gap faol. Sodda gaplarning ham aksariyati murakkablashmagan, "oddiy" sodda gaplardir. Sodda gaplarning ham aksariyati murakkablashmagan, "oddiy" sodda gaplardir. Ulardan *Bu — ma'naviyat borasidagi ishlardir*,

Ma'naviy qashshoq odam faqat manqurt bo'lishi mumkin, Manqurt esa na Vatanni biladi va na onani taniydi, Manqurt yovuzlar qo'lida qurol bo'ladi jumllalari to'la ma'nodagi qahhorona sintaktik qurilmalar ekanligi bilan xarakterlanadi.[O.Sharafiddinov publisistikasi tili va uslubi: 31] Murakkab sintaktik qurilmalar, murakkab qo'shma gaplar, periodlar juda kam uchrashi kuzatildi. Ijodkor har bir hodisani sinchiklab kuzatadi. Uning mohiyatini idrok etishga va uni o'ziga xos va mos ravishda ifodalashga intiladi. Ifodali birliklarni o'z o'rnila juda qulay holda joylashtiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurakhmonova N., Alisher I., Sayfulleyeva R. MorphUz: Morphological Analyzer for the Uzbek Language. In 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK) (pp. 61-66). IEEE. September, 2022.
2. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi O'zbek adabiy tili. – T.: Fan, 1966.
3. Karimov B. Chin ma'nodagi fidoyi. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.
4. Oripov A. Yuksakka chorlovchi e'tiqod. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.
5. Hamrayeva H. Ozod Sharafiddinov publisistikasining tili va uslubi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2009.
6. Hamrayeva H. Ozod Sharafiddinov publisistikasining til xususiyatlari. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. – Toshkent, 2010.
7. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. — T.: "Sharq", 2004.
8. Sharafiddinov O. Birinchi mo'jiza. — T.: Adabiyot va san'at, 1979.